

Dastur ranglarni qo'shish qobiliyatiga ega, bu har bir buyumda ma'lum bir mavzuni birlashtirgan holda printlarni amalga oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, modellashda matolarning tuzilishi va shakli barqarorligi o'rnatiladi – hajmli englar, korsajlarning qattiqligi, yubka etaklarning burmalari. Atrofdagi fonni o'rnatish va "Okrujayushchaya sreda" yorlig'ida "Zagruzit risunok zadnego plana" funksiyasidan foydalanib «Zadniy plan»ni qo'yish mumkin. Keyin, kompyuterdagi mavjud rasmlarni yoki fotosuratlarni ko'rib chiqib va eng mosini tanlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.I.Sharipova, D.F.Djalolova "Tikuv buyumlarini loyihalashning avtomatlashtirilgan sistemasi" O'quv qo'llanma. – Buxoro, "Durdona", 2023. – 114 b.
2. D.F.Djalolova "Tikuv buyumlarini tayyorlashda kreativ loyihalash". O'quv qo'llanma. – Buxoro, "Durdona", 2021. – 180 b.
3. Э.Б.Булатова, Л.Г. и др процессов проектирования, предоставляемые САПР «Грация» // Шв.пром., 2000, №4.

O'ZBEKISTONDA IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI

i.f.n. Ko'chimov Abdujamil Hamraqulovich

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

G'oyibnazarov Abduvohid Fozil og'li

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali magistranti

kuchimov7474@jmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiyaning afzalliklaridan iqtisodiyotda hamma foydalanishini ta'minlash ambitsiyalariga erishishda muhim rol o'ynaydi. Raqamli iqtisodiyotning aholi turmush darajasiga ijobiy va salbiy ta'sirlari mavjud bo'lib, bunga to'liq moslashgunga qadar ba'zi mamlakatlar qiyinchiliklarga duch keladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, texnologik taraqqiyot, raqamlashtirish, raqamli transformatsiya, raqamli inqilob.

Raqamlashtirish axborot texnologiyalarini joriy etish ko'lami bilan chambarchas bog'liq bo'lsada, tashkiliy va strategik o'zgarishlarni ham taqozo etadi. Shuning uchun ham ayni paytda, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda yangicha ish uslubiga o'tish, yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalar yordamida tashkiliy jihatdan yangilashga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'biri bilan aytganda, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda."

Raqamli iqtisodiyot o'zi nima degani, raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish tizimidir. Boshqacha aytganda, raqamli iqtisodiyot – bu online xizmatlar ko'rsatish, elektron to'lovlarni amalga oshirish, internet savdo va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarni rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir.

Raqamli iqtisodiyot – bu noldan boshlab yaratiladigan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas, bu – yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellarni yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali joriy iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish demakdir.

Albatta, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarning hayotimizga tadbiq etilishi har bir inson hayotida ko'plab ijobiy imkoniyatlar berishi mumkin. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ortidan inson, unga kerakli xizmatdan tezroq foydalanishi, internet orqali o'ziga kerakli mahsulotlarni arzon sotib olish bilan ko'plab pul mablag'larini tejashi mumkin. Masalan biron bir kitobning elektron ko'rinishda sotib olish Sizga, shu kitobni chop etilgan ko'rinishini sotib olish ancha arzonga tushishi mumkin. Yoki bo'lmasa oddiy iste'molchi o'zi ham tadbirkor bo'lishi, uyidan chiqmagan holda onlayn savdo-sotiq bilan shug'ullanishi mumkin. Raqamli transformatsiya iqtisodiyotda bir qancha qulayliklar yaratadi va samaradorlikni oshiradi:

- ishlab chiqarishda mehnat samadorligini oshishi;
- kompaniyalarning raqobatbardoshligini o'sishi;
- ishlab chiqarishdagi harajatlarning kamayishi;
- yangi ish o'rinlari yaratilinishi;
- yangi zamonaviy kasblar paydo bo'lishi;
- kambag'allikni yengish va ijtimoiy tengsizlikni yo'qolishi.

Dunyo mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot rivojlanmoqda. Kundalik hayotimizga axborot texnologiyalarni tadbiq qilinishi ortidan oddiy insonlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Hozirga kunda uydan chiqmasdan ko'plab oziq-ovqat mahsulotlari va taomlariga buyurtma berishimiz, ularni uyimizgacha yetkazib berishlari mumkin.

Lekin shuni ta'kidlash kerak-ki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot O'zbekiston potensialiga nisbatan bir necha barobar sekinroq rivojlanmoqda. Ya'ni imkoniyat bor, kerakli resurslar mavjud lekin rivojlanish ancha sust. Bunga sabab sifatida raqamli iqtisodiyotni O'zbekistonda rivojlanishini bir qancha to'siqlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- 1) ko'plab sohalardagi monopoliya;
- 2) internet tezligini pastligi va uni sifatsizligi;
- 3) axborot texnologiyalari sohasida qonunchilikning zamondan orqada qolganligi;
- 4) fuqarolarda kompyuter savodxonligining pastligi;
- 5) qonunchilikning shaffof emasligi;
- 6) axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislarning yetishmasligi yoki ularni

boshqa mamlakatlarga ketib qolishi;

7) axborot madaniyati, axborot gigiyenasi pastligi;

8) axborot texnologiyalari xavfsizligi yaxshi emasligi;

9) boshqaruv organlarida sohani tushunadigan mutaxassislarning kamligi yoki (ba'zilarida) ularning umuman yo'qligi;

Yuqorida keltirilgan muommolar bosqicha-bosqich, tizimli, dunyo tajribasidan kelib chiqib hal qilinsa, O'zbekiston ham bimalol raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda biri bo'la oladi.

Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshiradi, shuning barobarida, xufyona iqtisodiyotga barham beriladi. Xalqaro amaliyotga yuzlanadigan bo'lsak, hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot elektron tijorat va xizmatlar sohasi bilan cheklanib qolmay, balki hayotning har bir jabhasiga, xususan, sog'liqni saqlash, fan-ta'lim, qurilish, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv, internet-banking va boshqa sohalarga jadal kirib bormoqda va ularning har birida o'zining yuqori samaralarini bermoqda. Davlat o'z fuqarolari uchun elektron xizmatlar ko'rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi - bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu sohani keng rivojlantirish korrupsiya illatiga barham beradi.

O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi, eng avvalo, puxta va mukammal tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish, qolaversa, innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish bo'yicha davlat organlari va tadbirkorlik subyektlarining uzviy hamkorligini ta'minlash, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish, bu borada zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan, intellektual salohiyatli kadrlarni yetishtirish, shu orqali, mamlakatda "axborotlashgan jamiyat" muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyotini rivojlanishning asosiy yo'nalishlari:

- Innovatsiyalarni rag'batlantirish, tadqiqot va bilim almashishni rag'batlantirish, savdo va elektron tijoratni kengaytirish, yangi biznes va xizmatlarni rivojlantirish uchun erkin axborot oqimini qo'llab-quvvatlash.

- O'sishni rag'batlantirish va global ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun raqamli innovatsiyalar va ijodkorlikni rag'batlantirish, ma'lumotlar, jumladan, davlat sektorida ochiq ma'lumotlar mavjudligini rag'batlantirish, tadbirkorlik rivojlanishini rag'batlantirish.

- Keng polosali ulanishning o'sishini ta'minlash va raqamli tafovutni bartaraf etish uchun raqamli infratuzilma va xizmatlar salohiyatidan foydalanish.

- Raqamli iqtisodiyotga ishonchni mustahkamlash, izchil raqamli xavfsizlik siyosatini amalga oshirishni ta'minlash uchun raqamli xavfsizlik risklarini boshqarish va maxfiylikni himoya qilish tizimini targ'ib qilish.

- Iste'molchilar va biznes manfaati uchun elektron tijorat (ichki va transchegaraviy) dagi to'siqlarni bartaraf etish jarayonini rag'batlantirish, shuningdek,

milliy va xalqaro darajada iste'molchilar huquqlarini himoya qilish organlari va boshqa davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish.

- Ishlab chiqarish, iste'mol va hamkorlikning yangi shakllari uchun imkoniyatlar yaratadigan onlayn platformalardan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4699-son qarori.

3. Ko'chimov A.H., Boltaeva M.J. Raqamlashgan ta'lim va uning OTM boshqaruv samaradorligini oshirishdagi roli. KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI. *mavzusidagi Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami* (2022-yil 14-15-oktyabr)

4. Xaydarov B. X., Saitov S. A. RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI AMALIY AHAMIYATI VA XORIJIY TAJRIBA //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 151-156.

5. <https://www.texnoman.uz/post/raqamli-iqtisodiyot-nima.html>

6. https://www.researchgate.net/publication/356857900_raqamli_iqtisodiyot_tushunchasi_afzalliklari_va_amaliy_ahamiyati

7. <https://lex.uz/docs/-5458249>

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Madaminova Gulmira Ikromaliyevna,

Omonov Jasur Sayfulla o'g'li

Farg'ona politexnika instituti, O'zbekiston

g.madaminova@ferpi.uz

Annotatsiya. Maqolada iqtisodiyotini yuksaltirishda sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirishda raqamlashtirishning ahamiyati haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Iqtisodiyot, raqamlashtirish, yalpi ichki mahsulot, moliya, resurs, axborot texnologiyasi.

Davlatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishda sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish g'oyat muhim ahamiyatga egadir. Chunki, sanoat tarmog'i rivoji orqali mamlakatning barcha tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan, shuningdek fan-tehnikaning barcha yutuqlaridan unumli foydalanish imkoniyati yuzaga keladi. Sanoatni raqamlashtirish esa ushbu jarayonda muhim ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Dunyo hamjamiyatida raqamlashtirish darajasiga ko'ra korxonalarning nominal yalpi ichki